

**ILK BOLALIK DAVRLARIDA PSIXIK TARAQQIYOT. 3-7 YOSHDA KECHADIGAN
PSIXOLOGIK O'ZGARISHLAR**

Ko'shako'va Barno Kamilovna
Urganch davlat universiteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ilk bolalik davri o'ziga hos psixologik jarayonlardan o'tadi. Psixologlarning fikricha bolalar bu davrda o'zini qiziqtirgan barcha savollarga javob olishi va qiziqishlarini so'ndirmaslikka harakat qilish kerak.

Kalit so'zlar: psixologiya, elemantar gigiyena, analogik, syujetli o'yin, predmet, induvidal o'yin, syujetli rolli o'yin.

Аннотация: Раннее детство характеризуется психологическими процессами. По мнению психологов, в этот период дети должны получить ответы на все интересующие их вопросы и постараться не терять интерес.

Ключевые слова: психология, элементарная гигиена, аналог, сюжетная игра, предмет, индивидуальная игра, сюжетно-ролевая игра.

Abstract: Early childhood is characterized by psychological processes. According to psychologists, children should get answers to all the questions they are interested in during this period and try not to lose their interest.

Key words: psychology, elementary hygiene, analog, plot game, subject, individual game, plot role play.

Ilk bolalik davrida psixik taraqqiyot. 3-7 yoshda kechadigan psixologik o'zgarishlar. Ilk bolalik davri. Go'daklik davridan so'ng rivojlanishning yangi bosqichi ilk (1-3yosh) davri boshlanadi, ilk bolalik davri bola hayotidagi eng ahamiyatga molik, uning kelajakdagi psixologik rivojlanishini belgilab beruvchi -muhim davr hisoblanadi. Bu davrdagi rivojlanishning asosini bolaning to'g'ri yurishi, muloqotga kirishishi va predmetlash faoliyatini egallah xususiyatlari tashkil etadi. Tikka va to'g'ri yura olish imkonini bolani, doimiy ravishda yangi ma'lumotlarni egallahga zamin bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'z xatti -harakatlari bilan juda faol va kattalar bilan muloqotga kirishishga juda intiluvchan bo'ladilar .

3-7 yoshgacha bo'lgan davr bog'cha yoshi davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lislini inobatga olgan holda 3 davrga (3-4 yosh) kichik maktabgacha davri (4-5 yosh kichik) bog'cha yoshi o'rta maktabgacha davr (o'rta bog'cha yoshi) 6-7 yosh va katta maktabgacha davr va katta bog'cha yoshlilarga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida odamlarning ilgari o'tgan avlodni tomonidan predmet va hodisalar olami bilan alohida maxsus munosabatga kirishadi. Bu davrda bola ongida anglash tushunchalari rivojlana boshlaydi. Bolaga atrofqa qiziqish, ko'plab savollarga javob olish uchun istaklar paydo bo'ladi. Bola insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, egallab boradi.

Bunda predmetlar olamini, hamda ular yordamida amalga oshiriladigan hatti - xarakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobilyatlarning o'sib borishi,katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bolalarga beriladigan tarbiya ularning murakkab harakatlarini takomillashtirish, elementar gigiyena, ma'daniy va mehnat malakalari hosil qilish, nutqni o'stirish hamda ijtimoiy ahloq va estetik didning dastlabki kurtaklarini yuzaga keltirish davridir.

Mashhur rus pedagoglaridan biri Lesgraftning fikricha insonning bog'cha yoshidagi davri shunday bir davrki, bu davrda bolada kelgusida qanday harakter hislatlari paydo bo'lishi belgilanadi va axloqiy harakterning asoslari yuzaga keladi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri ularning serharakatligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin :bola uzlusiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi,lekin u faoliyat natijasidan emas ,balki faoliyatning bir xilligi va bir tomonlamaligidan charchab qoladi. Mana shu so'zlardan bog'cha yoshidagi bola tabiatning asosiy qonuni bo'lmish serharakatligini ortiq cheklab tashlamay,balki maqsadga muofiq ravishda uyuştirish kerakligi yaqqol ko'rinish turibdi. Bu davrda bolada jismoniy faoliyat bir muncha ustunlik qiladi. Yangi jismoniy mashqlar, bir muncha balandliklar va to'siqlar bola uchun qiziqish uyg'otadi. Kattalar va tengdoshlari bilan bo'lagan munosabat orqali bola axloq normalari, kishilarni anglash, shuningdek ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bola endi o'z gavdasini juda yaxshi boshqara boshlaydi. U yangiliklarni egallahga nisbatan o'zi bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi. O'zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir. Bog'cha yoshidagi bolalar ehtiyoji va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bu avvalo, keng doiraga chiqish ehtiyoji, munosabatda bo'lish, o'ynash ehtiyojlarining mavjudligidir. Bog'cha yoshidagi bolalar nutqini bir muncha to'la o'zlashtirganlari va xaddan tashqari harakatchanlari tufayli ularda o'zlariga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo'lish ehtiyoji tugildi. Ular tor doiradan kengroq doiraga intila boradilar. Ular endi qo'ni-qo'shnilarining bolalari bilan ham jamoa bo'lib o'ynaydilar.

Hamma narsani bilib olishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Bog'cha yoshidagi bola tabiatga xos bo'lgan kuchli ehtiyojlardan yana bir uning har narsani yangilik sifatida ko'rib bola uni har tomonlama bilib olishga intilishdir. Bog'cha yoshidagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatdan o'sishida qiziqishning ham roli kattadir. Qiziqish huddi ehtiyoj kabi bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixik hodisa desa bo'ladi.

Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishga intiladi va binobarin uzoq vaqt qiziqqan narsasi bilan

shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu esa o'z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim hislatlarni o'stirishga va mustahkamlashga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdag'i bolalarning yetakchi faoliyati bu o'yindir. Bog'cha yoshidagi bolalar o'zining o'yin faoliylari masalasi asrlar davomida juda ko'p olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining o'yin faoliyatida ildam qadamlar bilan olg'a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar.

3-7 yoshli bolalar psixik rivojida badiiy-ijodiy faoliyat bo'lgan musiqaning ham ahamiyati juda katta. Musiqa orqali bolalar ashula aytishga, musiqa ohangiga mos ritmik harakatlar qilishga o'rganadilar. 3-7 yosh davrida bolalarasosiy faoliyati quyidagi ketma-ketlikda keladi:

- predmetlarni o'rganish;
- individal predmetli o'yinlar, kollektiv syujetli-rolli o'yinlar;
- individal va guruhiy ijod;
- musobaqa o'yinlar;
- muloqot o'yinlar;
- uy mehnati.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, fan-texnika mislsiz rivojlangan bizning hozirgi zamonamizdagi yaratilinayotgan, hayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go'yo bir mo'jizadek ko'rindi. Natijada ular ham o'zlarining turli o'yinlari jarayonida o'xshatma qilib (ya'ni, analogik tarzda) har xil hayoliy narsalarni o'ylab chiqaradilar (uchar ot, mashina odam, gapiradigan daraxt kabi). Bundan tashqari, bolaning turli hayoliy narsalarni o'ylab chiqarishi yana shuni bildiradiki, ular o'zlarining har turli o'yin faoliyatlarida faqat atrofdagi bor narsalarni emas, balki ayni chog'da ehtiyojlari talab qilayotgan narsani ham aks ettiradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Maktabgacha ta'lif pedagogikasi
2. Bolalar psixologiyasi
3. talaba uz
4. kutubxona.uz.